

**BAYRAM MAROSIMLARI ATAMALARINING O'ZBEK VA NEMIS
TILLARIDA QIYOSIY TAHLILI****Yunusaliyeva Nozimaxon Zuxriddin qizi***Farg'ona davlat universiteti**Chet tillari fakulteti nemis tili yo'nalishi**3 - kurs 23.113 guruh talabasi***ORCID:** <https://orcid.org/0009-0007-9208-5708>**E-mail:** nozimaxon57@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada o'zbek va nemis tillarida bayram marosimlari atamalarining qiyosiy tahlili berilgan. Tadqiqotning maqsadi – ikki xalqning madaniy-milliy qadriyatlari asosida shakllangan bayram terminologiyasining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdir. Metod sifatida qiyosiy-lingvistik, lingvokulturologik, tarjima tahlili hamda diskurs tahlili qo'llanildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tilidagi bayram atamalari asosan islomiy an'analar va qadimiy urf-odatlariga tayanadi, nemis tilidagi terminologiya esa xristianlik va xalqona an'analar bilan bog'liqdir. Har ikki xalq terminologiyasi ijtimoiy birlik va madaniy identitetni mustahkamlashda muhim vazifani bajaradi. Xulosa o'rnida, bayram marosimlari atamalarini qiyosiy tahlil qilish tarjimashunoslik va lingvokulturologiya uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: bayram marosimlari, terminologiya, lingvokulturologiya, tarjima, qiyosiy tahlil, madaniyat, identitet, an'ana, ijtimoiy birlik, diskurs.

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ ПРАЗДНИЧНЫХ ОБРЯДОВ
В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ**

Аннотация: В данной статье представлен сопоставительный анализ терминов, связанных с праздничными обрядами в узбекском и немецком языках. Цель исследования выявить сходства и различия терминологии, сформировавшейся на основе культурно-национальных ценностей двух народов. В качестве методов использовались сопоставительно-лингвистический, лингвокультурологический, переводческий анализ и дискурс-анализ. Результаты исследования показали, что узбекская терминология в основном опирается на исламские традиции и древние обычаи, а немецкая – на христианство и народные традиции. В обоих языках праздничные термины выполняют функцию укрепления общественного единства и культурной идентичности. В заключении подчеркивается, что сравнительное изучение праздничной терминологии имеет важное теоретическое и практическое значение для переводоведения и лингвокультурологии.

Ключевые слова: праздничные обряды, терминология, лингвокультурология, перевод, сопоставительный анализ, культура, идентичность, традиции, общественное единство, дискурс.

COMPARATIVE ANALYSIS OF FESTIVE RITUAL TERMINOLOGY IN
UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

Abstract *This article presents a comparative analysis of festive terminology in Uzbek and German languages. The aim of the study is to identify similarities and differences in the terminology shaped by the cultural and national values of both peoples. The research applied comparative-linguistic, linguocultural, translation, and discourse analysis methods. The results demonstrate that Uzbek festive terms are mainly based on Islamic traditions and ancient customs, while German festive terminology is rooted in Christianity and folk traditions. In both languages, festive terms serve to strengthen social unity and express cultural identity. The conclusion emphasizes that the comparative study of festive terminology has significant theoretical and practical importance for translation studies and linguocultural research.*

Keywords: *festive rituals, terminology, linguoculture, translation, comparative analysis, culture, identity, traditions, social unity, discourse.*

KIRISH

Bayram marosimlari har bir xalqning madaniy merosida muhim ijtimoiy hodisa sifatida alohida o'rin egallaydi. Ular milliy o'ziga xoslik, urf-odatlar va qadriyatlarning bevosita ifodasi bo'lib, xalqning tarixiy xotirasini avloddan avlodga yetkazish vositasini ham ta'minlaydi. Bayramlar jarayonida namoyon bo'ladigan marosimlar, ramzlar, atamalar va iboralar orqali jamiyatning turmush tarzi, dunyoqarashi hamda diniy e'tiqodlari ifoda etiladi. Shu jihatdan, bayram marosimlariga oid atamalar tilshunoslikda nafaqat leksik-semantik birlik sifatida, balki madaniy-ma'naviy mazmunni aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida ham o'rganiladi.

O'zbek tilida shakllangan bayram terminologiyasi asosan Sharqona qadriyatlar, islomiy an'analar va qadimiy turkiy urf-odatlarga tayangan holda rivojlangan. Masalan, *Navro'z*, *Ramazon hayiti*, *Qurbon hayiti* kabi terminlar xalqning diniy va tarixiy merosi bilan chambarchas bog'liqdir. Nemis tilidagi bayram marosimlariga oid terminlar esa asosan Yevropa madaniyati, xristianlik dini hamda milliy tarixiy jarayonlar bilan uzviy aloqada shakllangan. *Weihnachten* (Rojdestvo), *Ostern* (Pasxa), *Oktoberfest* kabi atamalar nemis xalqining diniy e'tiqodlari va ijtimoiy hayot tarzini yoritadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki til bayram marosimlarini ifodalashda turlicha madaniy-milliy asosga ega bo'lsa-da, ularning ijtimoiy mohiyati bir-biriga o'xshashdir. Bayram marosimlari xalq birligini mustahkamlash, jamiyatni ijtimoiy-madaniy jihatdan birlashtirish va milliy identitetni asrab-avaylash vazifasini bajaradi. Shu bois bayram marosimlari atamalarining qiyosiy tahlili tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya fanlari uchun dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu maqolada o'zbek va nemis tillaridagi bayram marosimlari terminlari qiyosiy-lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi, ularning semantik xususiyatlari, madaniy asoslari va tarjima jarayonidagi muammolari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bayram marosimlari terminlarini o'rganish masalasi lingvokulturologiya, etnolingvistika, sotsiologiya va tarjimashunoslik yo'nalishlarida ko'plab ilmiy izlanishlarga asos bo'lib kelmoqda. Tilshunoslik nazariyalarida madaniy-ma'naviy hodisalarning til orqali

ifodalanishi masalasi keng yoritilgan. Masalan, A. V. Mudrik ijtimoiylashuv jarayonida bayramlar va marosimlarning shaxs dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rnini alohida ta'kidlaydi⁷¹. Yu. Apresyan milliy konseptlar til birliklarida aks etishini ko'rsatib o'tgan bo'lsa⁷², N. Arutyunova lingvistik birliklarning semantik qatlamida xalqning tarixiy-madaniy tajribasi mujassam bo'lishini isbotlab bergan⁷³.

G'arb tilshunosligida ham bu mavzuga katta e'tibor qaratilgan. X. Lutzeler va K. Heine xalq bayramlari terminologiyasini milliy identitetni shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin qiladilar⁷⁴. Shuningdek, nemis tilshunosligidagi "Volkskunde" (xalqshunoslik) doirasidagi tadqiqotlarda xalq marosimlari va bayramlarning tilga ta'siri, ramziy ifodasi va jamiyatdagi kommunikativ vazifalari keng o'rganilgan. Ushbu adabiyotlar bayram marosimlari terminlarini faqat lingvistik birlik emas, balki madaniy fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Qiyosiy-etnolingvistik yondashuvga ko'ra o'zbek va nemis tillarida bayram terminlarining kelib chiqishi, ularning xalq ongida qanday shakllanganini va milliy-madaniy xususiyatlarini solishtirish imkonini berdi.

Diskurs tahliliga ko'ra ommaviy axborot vositalari, folklor matnlari, diniy marosim tavsiflari va rasmiy hujjatlar asosida bayram atamalarining qo'llanish doirasi hamda ularning kommunikativ ahamiyati o'rganildi.

Tarjima tahlilida asosan bayram terminlari tarjimasida yuzaga keladigan muammolar (ekvivalentlik, adekvatlik, izohlash zarurati) tahlil qilinib, ularning boshqa madaniy muhitda qanday qabul qilinishi ko'rib chiqildi.

Madaniyatlararo kommunikativ yondashuvga asosan o'zbek va nemis jamiyatlarida bayram marosimlari terminlarining xalq birligini mustahkamlash, ijtimoiy xotirani asrab-avaylash va madaniy identitetni shakllantirishdagi vazifalari aniqlab berildi.

Shuningdek, adabiyotlar tahlili natijasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan bayram terminologiyasi tilning **semantik, pragmatik va sotsiokulturologik** qatlamlarini o'rganishda muhim ob'ekt bo'lgani qayd etildi. Xususan, Sharq va G'arb xalqlarining bayram atamalaridagi farqlar diniy manbalar, tarixiy an'analar va ijtimoiy turmush tarziga bog'liq ekanligi ilmiy manbalarda keng yoritilgan.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqot o'zbek va nemis xalqlarining bayram marosimlari terminlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o'zaro solishtirish imkonini berdi. Natijada, bayram terminologiyasining nafaqat lingvistik, balki madaniy, diniy va tarixiy qatlamlari ham tizimli ravishda o'rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek tilida bayram marosimlariga oid terminlar, avvalo, islomiy qadriyatlar va qadimiy turkiy an'analar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, **Ramazon hayiti** va **Qurbon**

⁷¹ Mudrik A.V. Социализация человека: учеб. пособие для студентов высш. учеб. зав. / А.В. Мудрик. – 2-е издание., испр. и доп. – М.: Издательский центр "Академия", 2006. – С. 304.

⁷² Apresyan Yu.D. Leksicheskaya semantika: sinonimicheskie sredstva yazyka. – М.: Nauka, 1995. – С. 384.

⁷³ Arutyunova N.D. Yazyk i mir cheloveka. – М.: Yazyki russkoy kultury, 1999. – С. 896.

⁷⁴ Lutzeler H. Volkskultur und ihre Feste in Deutschland. – Berlin: Springer Verlag, 2001. – С. 215.

hayiti musulmon dunyosida keng nishonlanadigan diniy bayramlar bo'lsa, **Navro'z** qadimdan kelayotgan bahoriy marosim sifatida xalqning tabiat va hayot falsafasiga aloqador qadimiy urf-odatlarini mujassamlashtiradi. Ushbu terminlarning qo'llanishi o'zbek xalqining diniy e'tiqodi, ma'naviy qadriyatlari va ijtimoiy birlikka asoslangan hayot tarzini aks ettiradi.

Nemis tilidagi bayram terminlari esa asosan nasroniylik dini va Yevropa xalqlarining tarixiy-madaniy taraqqiyoti bilan bog'langan. Masalan, **Weihnachten (Rojdestvo)** - Iso Masihning tug'ilishiga bag'ishlangan eng muhim diniy bayram, **Ostern (Pasxa)** - Iso tirilishi bilan bog'liq marosim, **Pfingsten (Ruhlar bayrami)** esa muqaddas ruhning tushgan kuni sifatida diniy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, diniy bayramlardan tashqari milliy va mintaqaviy bayramlar ham mavjud bo'lib, ular orasida **Oktoberfest** Germaniya madaniyatining xalqona ramzi sifatida dunyoga mashhur.

Qiyosiy-lingvistik tahlil natijalariga bo'yicha **diniy asoslar bo'yicha farqga** ko'ra o'zbek tilidagi asosiy bayram atamaları islomiy qadriyatlarga, nemis tilidagilari esa xristianlik dini va Yevropa tarixiy-madaniy jarayonlariga tayangan.

Umumiy funksional o'xshashliklarga binoan har ikki xalq tilidagi bayram terminlari ijtimoiy birlikni mustahkamlash, madaniy merosni avloddan-avlodga yetkazish va milliy identitetni namoyon etish kabi umumiy vazifalarni bajaradi.

Tarjima nuqtayi nazaridan xususiyatlar shuni anglatadiki ayrim bayram atamaları to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega: masalan, *Weihnachten - Rojdestvo*, *Ostern - Pasxa*. Biroq ba'zi terminlar izohli tarjimani talab qiladi: *Oktoberfest*ni "Bavariya xalq bayrami" tarzida tushuntirish zarur, chunki u faqat diniy emas, balki ijtimoiy-madaniy va gastronomik an'analarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Lingvokulturologik jihatga ko'ra o'zbek va nemis xalqlarida bayram terminlari nafaqat diniy marosimlarni, balki xalqona qadriyatlarni ham ifodalaydi. Masalan, Navro'z tabiat uyg'onishi va hosildorlik ramzi bo'lsa, Oktoberfest xalqning birlashuvi, milliy taom va ichimliklarni targ'ib etish bayrami hisoblanadi.

Shunday qilib, natijalar shuni ko'rsatadiki, bayram marosimlari atamaları har ikki tilda milliy o'ziga xoslikni saqlash, diniy-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash va xalqaro muloqot jarayonida madaniyatlararo tafovutlarni anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Bayram marosimlari atamalarining o'zbek va nemis tillarida qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu terminlarning shakllanishida diniy, tarixiy va madaniy omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbek tilidagi bayram atamaları asosan islomiy e'tiqod va qadimiy turkiy an'analarga asoslangan bo'lsa, nemis tilidagi bayram terminlari nasroniylik dini, Yevropa tarixiy merosi va milliy an'alar bilan uzviy bog'liq deb qarash mumkin.

Shunga qaramay, mazkur atamalarining ijtimoiy-madaniy funksiyalari umumiylik kasb etadi. Har ikki xalqda bayramlar jamiyat a'zolarini birlashtiradi, milliy identitetni mustahkamlaydi va madaniy merosni keyingi avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu jihatdan, bayram marosimlari atamaları til va madaniyatning chambarchas bog'liqligini ko'rsatib beradi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, qiyosiy-lingvistik yondashuv nafaqat terminlarning tilshunoslik xususiyatlarini ochib beradi, balki ularning lingvokulturologik mazmunini ham chuqurroq yoritishga imkon yaratadi. Shu asosda tarjimashunoslikda aniq

ekvivalentlarni topish, izohli tarjimalardan foydalanish va milliy-madaniy o'ziga xoslikni to'liq yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarurligi aniqlanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalarida nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xalqaro madaniy aloqalar kengayib borayotgan hozirgi davrda, o'zbek va nemis xalqlarining bayram terminlarini tahlil qilish madaniyatlararo muloqot, tarjima amaliyoti va til o'rgatish jarayonida samarali qo'llanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Apresyan Yu.D. Leksicheskaya semantika: sinonimicheskie sredstva yazyka. – M.: Nauka, 1995. – S. 384.
2. Arutyunova N.D. Yazyk i mir cheloveka. – M.: Yazyki russkoy kultury, 1999. – S. 896.
3. Dobrovol'skiy D.O. Kognitivnaya osnova yazykovoy semantiki. – M.: Yazyki slavyanskoy kultury, 2000. – S. 312.
4. Heine K. Kulturgeschichte der deutschen Feste. – München: Beck, 2004. – S. 242.
5. Humboldt W. von. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihren Einfluss auf die geistige Entwicklung des Menschengeschlechts. – Berlin: Konigliche Akademie der Wissenschaften, 1836. – S. 368.
6. Karasik V.I. Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs. – Volgograd: Peremena, 2002. – S. 477.
7. Lutzeler H. Volkskultur und ihre Feste in Deutschland. – Berlin: Springer Verlag, 2001. – S. 215.
8. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, Brace & Company, 1921. – P. 258.
9. Telia V.N. Frazеologiya v kontekste kultury. – M.: Yazyki russkoy kultury, 1996. – S. 328.
10. Whorf B.L. Language, Thought, and Reality. – Cambridge, MA: MIT Press, 1956. – P. 302.
11. Мудрик А.В. Социализация человека: учеб. пособие для студентов высш. учеб. зав. / А.В. Мудрик. – 2-е издание., испр. и доп. – М.: Издательский центр “Академия”, 2006. – С. 304.
12. Ходжаев Б.Х. Pedagogik aksiologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – B. 216.